

## ALIFBO DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI DIDAKTIK O‘YINLAR ORQALI KREATIV FIKRLASHGA O‘RGATISH

**Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi**

E-mail: [nnasriddinova57@gmail.com](mailto:nasriddinova57@gmail.com)

Termiz Davlat Pedagogika insituti 2-kurs magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Alifbo darslarini o‘qitishda o‘quvchilarni didaktik o‘yinlar orqali kreativ fikrlashga o‘rgatish hamda zamonaviy metodlardan foydalanishning samarali jihatlari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** dars jarayoni, zamonaviy metodlar, tovush, harf, bo‘g‘in bilan ishlash metodikasi, intensiv mashg‘ulotlar, didaktik o‘yinlar, kreativlik.

Boshlang‘ich ta‘lim uzluksiz ta‘limning asosiy bosqichi hisoblanadi. Zukko, bilimdon, ijodkor, tanqidiy fikrlovchi har tomonlama barkamol avlodlarni voyaga yetkazishda aynan shu bosqichning o‘rni kattadir. Maktab sari ilq qadam qo‘ygan murg‘ak qalbli bolajonlarimizning o‘qib-o‘rganadigan ilk kitobi bu shubhasiz Alifbo kitobidir. Alifbo darslarini sermazmun tashkil etish va o‘quvchilar savodini oshirish soha bilimdonlarining muhim vazifalaridan biridir. Ushbu vazifalarni bajarish mobaynida dars mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish, innovatsion texnologiyalardan foydalanib har bir o‘uvchi bilan individual va differensial yondashib o‘quvchilarni faollikka undashi, kreativ fikrlashga yo‘naltirishi zarurdir. Alifbo darslarining asosiy maqsadi elementar o‘qish va yozishga o‘rgatishdan iboratdir. Bugungi globallashuv jarayonida esa o‘qish va yozishdan tashqari ijodiy fikrlashga o‘rgatib boorish zarurdir. Dars mashg‘ulotlari boshlanishida voqea-hodisalar haqida tasavvurlar shakllantirilib, predmetlar orqali abstraktlashtirilib boriladi. “Alifbe” birinchi o‘quv kitobi bo‘lib, uni ishlab chiqishda didaktikaning umumiy mezonlariga: g‘oyaviylik; bayonning ilmiyligi ,tushunarlilik; ko‘rsatmalilik; onglilik; o‘quv materialining hayot bilan bevosita aloqadorligi; bolalar yoshi va dunyoqarashi, o‘ziga xos ruhiy xususiyatlarining hisobga olinishi hamda [1]“Alifbe” darsligining tuzilishining xususiy mezonlariga asoslanadi.

i5ii

---

<sup>5</sup> 2. Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma/T.G‘afforova. –T.:Tafakkur, 2011. 57-59 b

R.Safarova va boshq.Savod o'rgatish darslari (Alifbeni o'qitish bo'yicha metodik qo'llanma).-T.:”Ma’naviyat”. 2003.3-bet.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim olishga qiziqishlar uyg'otishda didaktik o'yin faoliyatining o'rni beqiyosdir. O'yin faoliyati yosh davrdagi ilm oluvchi o'quvchilarning asosiy faoliyat turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'quvchilarda zo'r motiv uyg'otadi. O'yin faoliyatidan oilada ota-onalar, bog'chada tarbiyachilar, maktab dargohida o'qituvchilar qo'llaydilar va shu tariqa ularning bilish faoliyatini qulaylashtirib, jarayonga kirishishlarini shakllantiradi. O'yin faoliyati maktab davrlarida yanada rivojlanadi.O'quvchilarning o'yin faoliyati juda ko'p soha olimlarini, ya'ni, faylasuflar, sotsiologlar, biologlar, san'atshunoslar, etnograflar, ayniqsa, pedagoglar va psixologlarni qiziqtiradi. Psixologlar bola psixikasining rivojlanishida o'yinning hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qaraladi. Faqat o'yindagina bolada shaxsning hamma tomonlari birlikda va o'zaro ta'sirda shakllanadi. O'yingina bola psixikasida rivojlanishning yuqoriroq stadiyasiga o'tish uchun muhim sharoit yaratadi. Didaktik o'yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqi shundaki unda o'quvchilar o'rtasida hamkorlik faoliyati, muammolarni yechimini topish usullari paydo bo'la boshlaydi. Didaktik o'yinlar o'quvchilar uchun qiziqarli, diqqatni jamlovchi faoliyat turidir. Didaktik o'yinlarning boshqa faoliyat turlaridan farqlanadigan muhim belgilari uning tarkibi qat'iyligidir. Didaktik o'yinlarning tarkibiy komponentlari quyidagilar: o'yin mantiqi, o'yinning harakati, o'yin qoidasi. O'yinning mantiqi asosan uning sarlavhasida aks etadi. O'yin harakati jarayonida o'quvchilarning bilish faolligini oshirishga, o'quvchilarning o'z qobiliyatini namoyon qilishga, o'yin maqsadiga erishish uchun o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini qo'llashga imkoniyat yaratiladi.O'yin qoidasi o'yin jarayonini to'g'ri tashkil etishga yordam beradi. U o'quvchilar xulqini, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi. Didaktik o'yinlarda ma'lum bir natijaga erishiladi, uning finali uning tugaganligini bildiradi. O'yinda ma'lum bir didaktik maqsad qo'yiladi va bu maqsadga erishilishi o'quvchilarda ma'naviy va aqliy qoniqish hissini shakllantiradi. Didaktik o'yinlar hamavaqt o'qituvchi uchun o'quvchilarning bilim o'zlashtirishi yoki o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash ko'rsatkichi hisoblanadi. Bilimga qiziqish ta'lim jarayonining kuchli vositasiga aylanadi. [2]

Buyuk allomamiz Abu Rayxon Beruniy o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtirish muhim vazifa ekanligini uqtirib, “Qadimiy xalqlardan yodgorliklar” asarida “Maqsad gapni cho'zish emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik, chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandan-fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmasdan boshqasi boshlanadi va u kishi har bir narsada o'ziga yarasha lazzat bor deyilganidek ularni

ko'rishga qiziqadi va ko'zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keladi",- degan edi. [3] Haqiqatdan o'quvchilarni ta'limiy didaktik o'yinlar orqali bir xillikdan olib chiqish juda samarali usuldir. . Pedagog olimlar tomonidan tayyor mazmun va qoidalarga ega bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy o'yinlar yaratilmoqda. Qoidalar va tayyor o'yin mazmuni o'quvchilarni o'yinni mustaqil tashkil etishlariga yordam beradi. Ta'lim jarayonidagi o'quvchining faolligi, didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri

bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.[4]

Didaktik o'yinlarni uch turga ajratish mumkin: og'zaki, so'zlar yordamida o'ynaladigan o'yinlar, o'yin mashg'ulotlari, mashq (harakatli) o'yinlar. Misol tariqasida "Gulzorga sayohat" o'yini. O'yindan maqsad: Yangi o'rganilgan tovushni mustahkamlash va bo'g'inlardan foydalanib so'zlar tuzish va o'qishni o'rganish. Kerakli jihozlar: Gullar rasmi va mavzuga oid bo'g'inlar. O'yin qoidasi: Gullarga bo'g'inlar yopishtirilgan bo'ladi. O'quvchilar gullardan kerakli bo'g'inlarni olib so'zlarni hosil qiladi va o'qiydilar. Namuna: -in, -ni, -na, -no, -on,-o, -n,-an. Didaktik o'yinlar va topshiriqlar, darsliklar bilan ishlash jarayonida o'quvchi uchun zerikarli tuyulmaydi aksincha o'quvchilarning kreativ fikrlashlariga asos bo'lib xizmat qiladi. Savod o'rgatish jarayonida esa o'quvchilarning kreativligini oshirish, kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushuncha mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "create" so'zidan olina bo'lib "yaratish" ma'nosini bildiradi. Kreativlik o'quvchini rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson taffakuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi. U o'quvchiga ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, hayotiy muommolar yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi, ya'ni berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Albert Eynshteyn "Tasavvur-bilimdan muhim" deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. "Kreativlik" so'zini ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D.Simpson tomonidan qo'llangan. Ushbu atama bilan shaxs qolipdagi, stereotip odatiy tafakkurida voz kechish qobiliyatini ta'riflagan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativligini rivojlantirish, faollashtirish uchun o'qituvchilar o'quvchilarni obrazli fikrlashga undashi, muammoni aniq ifodalash, fikrning doimo tugallangan jumla bilan hamda muhim joylarga urg'u berib ajratgan holda ifoda etishi, xushmuomalali va ziyrak bo'lishi,"Faraz qiling", "Tasavvur eting",

3. Beruniy. Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. Toshkent,1968. 106-107-b 4. Avliyoqulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya.-T.: "Tafakkur bo'stoni", 2012. -97-b.

“Ijodiy parvoz eting”, “Siz nima deb o‘ylaysiz”, “Muallif o‘rnida bo‘lganingizda voqealar rivojini qanday o‘zgartirar edingiz?” kabi so‘z birikmalari va so‘roq gaplardan foydalanishi bo‘yicha tavsiya beriladi. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma’naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilish, o‘rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Ya’ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo‘lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so‘zlarni yodlab, grammatika qoidalarini “suv qilib ichib yuborgan” bo‘lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o‘ynaydi. Albert Eynshteyn “Tasavvur — bilimdan muhim” deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko‘pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilar kreativligini o‘rganish alohida ahamiyatga ega bo‘lganligi bois mazkur ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilyapti. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilar kreativligi va tafakkur xususiyatlari o‘rtasida o‘zaro aloqalar mavjud. Shu jumladan dars mashg‘ulotlarida didaktik o‘yin texnologiyalari orqali o‘quvchilar ijodiy fikrlashlari, o‘qituvchi muammoli savollar ketirib chiqarishi natijasida tanqidiy fikrlashlariga undaydi. Shu taqlid dars mashg‘ulotlari olib borilsa jahon talablariga mos keluvchi zamonaviy dunyoqarashga ega yoshlar ilk alifbo davridanoq rivojlanib, shakillanib boradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Xalq so‘zi”, 2020 yil 24-sentabr, 202(7704)-son.
2. Pedagogika ensiklopediya. 2 jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2015.
3. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma/T.G‘afforova. –T.:Tafakkur, 2011.-160-b.
4. Beruniy. Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1-jild. Toshkent,1968.
5. Avliyoqulov N.X., Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya.-T.: “Tafakkur bo‘stoni”, 2012.

- 6.. Qosimova.K, S.Matchonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva, Sh. Sariev.“Ona tili o‘qitish metodikasi” - T.: «NOSHIR», - 2009. 352 b.
7. Rohatoy Safarova, Muhayyo Inoyatova Alifbe 1-sinf [Matn]: darslik /Safarova, M.Inoyatova,-Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.- 80 b
8. N.N-Azizxo‘jayeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. o‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2006, 160 b
9. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma/T.G‘afforova.-T.:Tafakkur,2011. 160-b.